



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 200-206 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH: MAHALLABAY TIZIM ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL VA STRATEGIK TAVSIYALAR



Niyozov Zuhur Davronovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.n.,

"Bank ishi" kafedrası professorı v.b.

Abduvaliyev Bahodir, Narzulloev Fayyozbek

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 4-bosqich talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda joriy etilgan "mahallabay ishlash tizimi" doirasida tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashdagi roli ilmiy-empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ko'p omilli regressiya tahlili va SWOT-metodologiyasi qo'llanilib, bank kredit resurslari bilan yangi ish o'rinlari yaratilishi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik aniqlangan ($R^2=0,874$). Samarqand, Jizzax va Buxoro viloyatlaridagi 5 ta fuqarolar yig'inida olib borilgan dala tadqiqoti natijalari asosida imtiyozli kredit portfelining tarmoq bo'yicha taqsimoti, qaytaruvchanlik darajasi va muammoli kreditlar ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kambag'allikni qisqartirish, moliyaviy inklyuzivlik, mahallabay tizim, tijorat banklari, ijtimoiy kreditlash, regressiya tahlili, SWOT-tahlil, mikromoliyalash, Social Banking, kredit qaytaruvchanligi.

Аннотация. В статье на основе научно-эмпирического подхода анализируется роль коммерческих банков Республики Узбекистан в сокращении бедности и обеспечении занятости населения в рамках системы «махаллабай», внедрённой в 2021 году. С использованием множественного регрессионного анализа и SWOT-методологии выявлена количественная зависимость между объёмом льготных банковских кредитных ресурсов и созданием новых рабочих мест ($R^2=0,874$). На основе полевых исследований, проведённых в пяти махаллах Самаркандской, Джизакской и Бухарской областей, выполнен сравнительный анализ отраслевой структуры кредитного портфеля, уровня возвратности и доли проблемных кредитов.

Ключевые слова: сокращение бедности, финансовая инклюзивность, система «махаллабай», коммерческие банки, социальное кредитование, регрессионный анализ, SWOT-анализ, микрофинансирование, Social Banking, возвратность кредитов.

Abstract. This article provides a scientific-empirical analysis of the role of commercial banks of the Republic of Uzbekistan in reducing poverty and ensuring employment within the "mahallabay" system introduced in 2021. Using multiple regression analysis and SWOT methodology, a quantitative relationship between preferential bank credit resources and new job creation was identified ($R^2=0.874$). Based on field research conducted in five mahallas of

Samarkand, Jizzakh and Bukhara regions, a comparative analysis of the sectoral structure of the credit portfolio, repayment rates and NPL ratios was carried out.

Keywords: *poverty reduction, financial inclusion, mahallabay system, commercial banks, social lending, regression analysis, SWOT analysis, microfinance, Social Banking, loan repayment rate.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning munosib turmush darajasini ta‘minlash davlatning asosiy burchlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu vazifani amalga oshirishda tijorat banklari muhim moliyaviy vositachi vazifasini bajaradi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida aholining real daromadlarini oshirish va kambag‘allik darajasini qisqartirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan. 2021-yilda joriy etilgan “mahallabay ishlash tizimi” tijorat banklariga aholiga mahalla darajasida manzilli moliyaviy xizmat ko‘rsatish imkonini yaratdi. Mazkur tizim doirasida banklar hokim yordamchilari bilan hamkorlikda kambag‘al va kam ta‘minlangan oilalarning moliyaviy ehtiyojlarini aniqlab, ularga maqsadli kredit mahsulotlarini taqdim etmoqda. Shu bilan birga, ushbu hamkorlikning amaliy mexanizmlari, miqdoriy samaradorligi va bandlikka ta‘sirini ekonometrik darajada baholash ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarining mahallabay tizim doirasida kambag‘allikni qisqartirishdagi rolini miqdoriy va sifat tahlil usullari yordamida baholash hamda hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlashda moliya tizimining maqsadli aralashuvi zarurligi J. Stiglitz tomonidan nazariy jihatdan asoslangan. Uning fikricha, moliya bozorlaridagi asimmetrik axborot kambag‘al qatlamlarning kredit resurslaridan uzilib qolishiga olib keladi [8]. CGAP tadqiqotlarida mikrokreditlar kichik tadbirkorlik orqali yangi ish o‘rinlari yaratishning samarali vositasi ekani, biroq monitoring to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, qarz yukini oshirib yuborish xavfi mavjudligi qayd etiladi [9].

O‘zbekiston sharoitida mahallabay tizim doirasida tijorat banklarining roli B.C. Murtazayev va A.S. Yusupov tadqiqotlarida yoritilgan. Murtazayev mahalla institutining ijtimoiy kapitali kambag‘allikni qisqartirishda muhim drayver bo‘lishini asoslagan [4], Yusupov esa banklarning ijtimoiy mas‘uliyati va bandlikni ta‘minlashdagi moliyaviy vositachilik funksiyasini tahlil qilgan [5]. Shuningdek, moliyaviy inklyuzivlikning kengayishi bank xizmatlari ommabopligini oshirish orqali aholining iqtisodiy faolligiga ta‘sir ko‘rsatishi Yunusov tomonidan qayd etilgan [6]. Biroq mahallabay tizim doirasidagi imtiyozli kreditlarning ish o‘rinlari yaratilishiga ta‘siri hududiy panel ma‘lumotlar va ekonometrik modellar yordamida yetarlicha baholanmagan. Aniq mahallalar kesimidagi iqtisodiy ixtisoslashuvning muammoli kreditlar darajasiga ta‘siri ham dala tadqiqotlari orqali chuqur o‘rganishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-statistik tahlil, ko'p omilli regressiya tahlili (multiple regression analysis) va SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Jahon banki hisobotlarining 2019–2023-yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi.

Tadqiqotning empirik bazasini boyitish maqsadida mualliflar tomonidan Samarqand viloyati "Qiyqim" va "Bobur" MFY, "Yuqori Chordara" MFY, Jizzax viloyati Baxmal tumani "Navro'z" MFY va Buxoro viloyati Peshko tumani "Shavgon" MFY hududlarida 2024–2025-yillarda dala tadqiqoti olib borildi. Regressiya modelida tobe o'zgaruvchi sifatida yangi yaratilgan ish o'rinlari soni (Y), mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa imtiyozli kredit hajmi (X_1), kichik va o'rta tadbirkorlikka berilgan kredit ulushi (X_2), qishloq aholisining bank inklyuzivligi (X_3) va kredit sifati ko'rsatkichi (X_4) qabul qilindi. Model 2019–2023-yillar bo'yicha 14 viloyat kesimidagi panel ma'lumotlar ($N = 280$ kvartal \times 14 viloyat) asosida quyidagi tenglama ko'rinishida qurildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 D2020 + \varepsilon$$

Bu yerda D2020 – 2020-yilgi pandemiya ta'sirini hisobga oluvchi dummy o'zgaruvchi. Wooldridge metodologiyasiga muvofiq modelning sifati R^2 , F-statistika, t-statistika va VIF ko'rsatkichlari orqali baholandi [14].

TAHLIL VA NATIJALAR

2019–2023-yillar davomida O'zbekistonda yangi yaratilgan ish o'rinlari soni 491 mingdan 618 mingga (+25,9%) o'sgan bo'lsa, shu davrda tijorat banklarining mahallabay tizim doirasidagi imtiyozli kredit hajmi 3,24 trln so'mdan 12,4 trln so'mgacha (3,83 barobar) oshgan. Ushbu dinamikaning sabab-oqibat xususiyatini aniqlash uchun ko'p omilli regressiya tahlili o'tkazildi (1-jadval).

1-jadval.

Bandlikka ta'sir etuvchi omillarning ko'p omilli regressiya modeli natijalari¹

O'zgaruvchi	Koeffitsient (β)	Standart xato	t-statistika	p-qiymat	Izoh
Konstanta (β_0)	48,32	12,41	3,89	0,001***	—
X_1 – imtiyozli kredit hajmi	0,0047	0,0009	5,22	0,000***	1 mlrd so'm = 4,7 ish o'rni
X_2 – KO'T kreditlari ulushi	3,84	1,02	3,76	0,002***	—
X_3 – qishloq	2,17	0,84	2,58	0,0	—

¹ Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sayti. – URL: www.mehnat.uz (murojaat: 2024).

O'zgaruvchi	Koeffitsient (β)	Standart xato	t-statistika	p-qiymat	Izoh
inklyuzivligi				18**	
X_4 – kredit sifati ko'rsatkichi	4,92	1,73	2,84	0,010**	—
D2020 – pandemiya dammisi	-74,18	11,34	-6,54	0,000***	Tashqi zarba ta'siri
$R^2 = 0,874$; F-statistika = 31,42 ($p < 0,001$); N = 280 (kvartal \times 14 viloyat)					

Model barcha to'rtta mustaqil o'zgaruvchi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0,05$) natijalarni bergan va $R^2 = 0,874$ ko'rsatkichi modelning ish o'rnlari o'zgarishining 87,4 foizini tushuntirishini ko'rsatadi. Imtiyozli kredit hajmining koeffitsienti $\beta_1 = 0,0047$ shuni anglatadi: imtiyozli kredit hajmining har 1 mlrd so'mga oshishi o'rtacha 4,7 ta yangi ish o'rni yaratilishi bilan bog'liq.

Mualliflar tomonidan Samarqand, Jizzax va Buxoro viloyatlarining beshta fuqarolar yig'inida 2025-yil davomida ajratilgan imtiyozli kreditlar tarmoq kesimida tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval.

Tanlangan mahallalar kesimida imtiyozli kredit portfelining hajmi va sifat ko'rsatkichlari (2025-yil)²

Mahalla (MFY) / Hudud	Asosiy ixtisoslashuv yo'nalishi	Kredit portfeli (mlrd so'm)	NPL ulushi (%)	Risk darajasi	Izoh
Qiyqim, Qo'shrabot t.	Chorvachilik (58%), uzumchilik (27%)	4,2	4,2	O'rta-yuqori	Agrar mavsumiylik xavfi
Bobur, Payariq t.	Tikuvchilik (37%), issiqxona (47%)	3,8	5,4	Yuqori	Bozor barqarorligi past
Yuqori Chordara, Samarqand t.	Mebelsozlik (37%), tekstil/qandolat (34%)	5,6	2,6	Mo'tadil	Shahar bozori yaqinligi
Navro'z, Baxmal t.	Bog'dorchilik (65%), asalarichilik (20%)	4,9	1,2	Minimal (past)	Kooperatsiya modeli

² Mualliflarning 2024–2025-yillardagi dala tadqiqoti natijalari asosida tuzilgan.

Mahalla (MFY) / Hudud	Asosiy ixtisoslashuv yo'nalishi	Kredit portfeli (mlrd so'm)	NPL ulushi (%)	Risk darajasi	Izoh
Shavgon, Peshko t.	Kulolchilik/zarduzlik (47%), gilamchilik (30%)	3,5	2,5	Mo'tadil	Eksport bozori barqaror
Jami / O'rtacha	—	22,0	3,06	Mo'tadil	—

Jami 22,0 mlrd so'mlik kredit portfelinin 96,9 foizi o'z vaqtida qaytarilgan, o'rtacha NPL koeffitsiyenti 3,06 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich kredit riskining nisbatan mo'tadil boshqarilayotganini ko'rsatadi.

Eng past NPL ko'rsatkichi (1,2%) "Navro'z" MFYda qayd etilgan. Bu hududda bank va hokim yordamchisi tomonidan joriy etilgan kooperatsiya modeli, ya'ni xonadonlarni bog'dorchilik va asalarichilik yo'nalishida yagona qiymat zanjiriga birlashtirish kredit sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Aksincha, eng yuqori NPL (5,4%) "Bobur" MFYda qayd etilgan bo'lib, buning asosiy sababi tikuvchilik va issiqxona mahsulotlarini sotish bozorining mavsumiyliigi hamda barqaror emasligi bilan izohlanadi.

3-jadval.

Tijorat banklarining mahallabay tizim doirasidagi SWOT-tahlili³

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> • Keng tarmoqlangan bank filiallar tarmog'i (6 500+ nuqta) • Mahallabay tizim orqali mijozlar bilan yaqin aloqa • Davlat tomonidan foiz subsidiyalash mexanizmlari mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> • Garov talabining kambag'al qarz oluvchilar uchun to'siq bo'lishi • Norasmiy sektorda ishlayotganlar uchun kredit tarixi yo'qligi • Qishloq hududlarida bank xodimlari yetishmasligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> • Mahallabay tizimni kreditlash kanali sifatida kengaytirish • Raqamli skoring orqali norasmiy sektor qarz oluvchilarini jalb etish <ul style="list-style-type: none"> • Ayollar tadbirkorligini maqsadli kreditlash dasturlarini kengaytirish • Xalqaro donorlar va OTB bilan hamkorlikni kengaytirish 	<ul style="list-style-type: none"> • Inflyatsiya va real foiz stavkasining ko'tarilishi riski • Tashqi iqtisodiy zarba (pandemiya, tabiiy ofatlar) ta'siri • O'z-o'zini band qilish kreditlarining norasmiy iqtisodiyotga o'tib ketish xavfi

³ Mualliflar tomonidan tuzilgan

SWOT-tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston tijorat banklarining asosiy kuchli tomoni mahalla institutining ijtimoiy kapitalidan foydalanish va keng filiallar tarmog'iga ega ekanligidir. Asosiy zaif tomonlar qatoriga garov talabining kambag'al qarz oluvchilar uchun to'siq bo'lishi, norasmiy sektorda kredit tarixining yo'qligi va qishloq hududlarida malakali kadrlar yetishmasligi kiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

Tijorat banklarining mahallabay tizim doirasidagi imtiyozli kredit resurslari bandlik darajasiga statistik jihatdan ahamiyatli va kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi ($R^2=0,874$); imtiyozli kredit hajmining har 1 mlrd so'mga oshishi o'rtacha 4,7 ta yangi ish o'ni yaratilishi bilan bog'liq.

Mahallabay tizim orqali berilgan kreditlarning qaytaruvchanlik darajasi 96,9 foizni tashkil etib, hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy monitoring mexanizmi kredit sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mahalliy iqtisodiy ixtisoslashuvga mos ravishda yo'naltirilgan va kooperatsiya shaklida tashkil etilgan kredit resurslari eng past NPL ko'rsatkichini (Navro'z MFY – 1,2%) namoyon etsa, mavsumiy daromadli va bozor noaniqligiga bog'liq loyihalar eng yuqori NPL ko'rsatkichini (Bobur MFY – 5,4%) ko'rsatadi.

Ayollar va yoshlar mahallabay kredit dasturlaridan o'z demografik ulushiga nisbatan kamroq foydalanmoqda; bu ularga mo'ljallangan maxsus kafolat va skoring mexanizmlarini joriy etish zaruriyatini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

tijorat banklari mahallabay tizim doirasida kredit ajratishda mahalliy iqtisodiy ixtisoslashuvni (agrar, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish yo'nalishlari) hisobga oluvchi tarmoq-mintaqaviy kredit xaritasini shakllantirishi lozim;

kredit mahsulotlarini loyihalashda mavsumiy daromad grafiklari va sotish bozorining barqarorligini baholash mezonlarini majburiy tartibda joriy etish zarur (Bobur MFY tajribasi asosida);

barqaror natija bergan kooperatsiya modelini "Navro'z" MFY tajribasi asosida boshqa qishloq mahallalariga tatbiq etish maqsadga muvofiq; banklar xonadonlarni tayyor mahsulot sotib oluvchi korxonalar va kooperatsiyalar atrofida birlashtirib kreditlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mahallabay tizim doirasidagi tijorat banklari va hokim yordamchilari hamkorligi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirishning samarali tizimli mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Biroq uning to'liq salohiyatidan foydalanish uchun kredit resurslarini mahalliy ixtisoslashuvga moslashtirilgan holda manzilli yo'naltirish, monitoring tizimini institutsional mustahkamlash hamda ayollar va yoshlarga yo'naltirilgan kafolat mexanizmlarini kengaytirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida".
2. O‘zR Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni "2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida".
3. O‘zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni (yangi tahriri). – T., 2019.
4. Murtazaev B.C. Mahallabay ishlash tizimi – kambag‘allikni qisqartirishning drayveri sifatida // "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali. – 2022. – №4. – B. 112–119.
5. Yusupov A.S. Banklarning ijtimoiy mas'uliyati va aholi bandligini ta'minlash masalalari // "Moliya" jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–53.
6. Yunusov B.A. Moliyaviy inklyuzivlik va bank xizmatlari ommabopligi. – T.: Cho‘lpon, 2021. – 210 b.
7. Omonov A.A., Qoraliev T.M. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2018. – 296 b.
8. Stiglitz J.E. The Price of Inequality. – W.W. Norton & Company, 2012. – 448 p.
9. CGAP. Microcredit Interest Rates and Their Determinants 2004–2011. – CGAP, 2013. – 44 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. – URL: www.cbu.uz (murojaat: 2024).
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. – URL: www.stat.uz (murojaat: 2024).
12. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sayti. – URL: www.mehnat.uz (murojaat: 2024).
13. World Bank. Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course. – Washington, DC: World Bank, 2022.
14. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. 2nd ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 2010. – 1096 p.
15. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. – Bank for International Settlements, 2017.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

